SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 21-noyabr | 613-7-96-Q/24 | Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

Yettinchi chaqiriq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ikkinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN :

I. Yettinchi chaqiriq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ikkinchi sessiyasi 2024-yil 28-noyabr kuni soat 11:00 ga chaqirilsin.

II. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1. Tashkiliy masala;

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi huzuridagi doimiy komissiyalar tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida;

3. Kattaqo‘rg‘on tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida;

4. Samarqand viloyat Adliya boshqarmasining 2024-yil 28-oktabrdagi 14-2-2/56-sonli taqdimnomasi muhokamasi to‘g‘risida;

5. Tuman hududida ayrim fermer xo‘jaliklari tomonidan yer uchastkalaridan oqilona va ehtiyotkorona foydalanish ahvoli o‘tkazilgan monitoring natijalari to‘g‘risida;

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga tuman fuqarolari tomonidan kelib tushgan murojaatlar, sektor rahbarlari tomonidan o‘tkazilgan ommaviy sayyor qabullar tahlili to‘g‘risida;

7. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan 2024 yilda budjetdan ajratilgan pul mablag‘lari ishlatilish holati hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida;

8. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi tomonidan “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida olib borgan ishlar hamda tumandagi sanoat korxonalari hududida yashil belbog‘ hududlarining tashkil etilishi yuzasidan hisoboti to‘g‘risida;

9. Boshqa masalalar.

III. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

Tuman hokimi **J.Nasriddinov**